

единой социальной, производственной, инженерной, транспортной и другой инфраструктуры системы расселения и перспективное развитие культурно-бытовых и рекреационных связей в пределах сферы влияния населенного пункта как центра системы расселения.

СПИСОК ИСПОЛЬЗУЕМОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Постановлением Кабинета Министров от 3.06.2014 года № 140 "Об утверждении положения о порядке разработки, согласования и утверждения документации о планировании развития территории и частей территории республики Узбекистан"
2. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 18.09.2021 г. № ПП-5246 «О мерах по реализации проекта «Устойчивое развитие сельской местности» с участием Исламского банка развития и фонда опеки по международному развитию»
3. Проект «Развитие сельской инфраструктуры» Министерства экономического развития и сокращения бедности Республики Узбекистан. Ташкент 5 ноября 2020 года.
4. Градостроительный Кодекс Республики Узбекистан новая редакция от 23.05.2021 года
5. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан, от 30.05.2023 г. № 222 «Об утверждении положения о правительственной комиссии по рассмотрению вопросов изменения категорий земель сельскохозяйственного назначения и земель лесного фонда».

O'ZBEKISTONNING JANUBIY SHAXARLARI MARKAZLARINI ME'MORIY-LANDSHAFT TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Dotsent KAMILOVA X.X., magistrant JAHONOVA S.G'.

Toshkent Arxitektura-Qurilish universiteti, "Shaharsozlik va landshaft arxitekturasini" kafedrası

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonning janubiy shaharlari markazlarini me'moriy-landshaft tashkil etishni takomillashtirish, hududlarni yanada ko'kalamzorlashtirish orqali ekologik muhitni yaxshilash dolzarb muammolardan biri ekanligi haqida so'z borgan. Ma'lumki, janubiy shaharlar iqlimi keskin kontinental bo'lganligi sabab qishning qahratonini ham, yozning jaziramasini ham ushbu hududda kuzatish mumkin. Shu sababdan me'moriy-landshaftini tashkil etishda innovatsion loyihalar asosida barpo qilish maqsadga muvofiqligi hamda shahar me'morchiligi, landshaft arxitekturasini va dizaynini o'zaro uyg'unlashtirish orqali hududlarni samarali landshaft tashkillashtirish yo'llarini ko'rsatib berish dolzarb ahamiyat kasb etishi to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: energiya tejamkor, estetik, ekspluatatsion, innovatsion yondashuv, keskin kontinental optimal daraja, ko'kalamzorlashtirish.

Аннотация. В данной статье упоминается, что улучшение архитектурно-ландшафтной организации центров южных городов Узбекистана, улучшение экологической среды за счет дальнейшего озеленения регионов является одной из актуальных задач. Также известно то, что климат южных городов резко континентальный, поэтому в этой местности можно наблюдать как суровую зиму, так и знойное лето. По этой причине предоставлена информация о целесообразности строительства на основе инновационных проектов в организации архитектурного и ландшафтного дизайна, а также показ путей эффективной ландшафтной организации регионов путем взаимной гармонизации городской архитектуры, ландшафтной архитектуры и дизайна.

Ключевые слова: энергоэффективный, эстетический, эксплуататорский, инновационный подход, резко континентальный оптимальный уровень, озеленение.

Abstract. This article talks about one of the problems of ensuring the architecture-landscape structure of the southern urban centers of Uzbekistan, further greening and improvement of the ecological environment. It is known that the climate of the southern cities is strongly continental, so it is possible to observe both the harshness of winter and the heat of summer in this area. For this reason, information was provided on the feasibility of building on the basis of innovative projects in the organization of architectural landscape and the relevance of showing the ways of effective landscape organization in the regions by combining urban architecture, landscape architecture and design.

Key words: energy efficient, aesthetic, exploitative, innovative approach, sharp continental optimal level, greening

Kirish. Bugungi kunga kelib shaharsozlikda ekologik muammolar ko'payib bormoqda va buni muvozanatini ta'minlovchi landshaft arxitekturasini yanada rivojlantirish, asrlar mobaynida to'plangan boy merosdan oqilona foydalangan holda, zamonaviy usullarni tadbqiq etish, janubiy shaharlar me'morchiligi va landshaft arxitekturasini o'zaro uyg'unlashtirish orqali hududlarda

ko'kalamzor maydonlarni shakllantirish va mavjudlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Barcha sohaning rivojlanishi va shakllanishi shu sohaning qanchalik keng tadqiq etilishiga ham bog'liq. Bugungi kunda O'zbekistonning janubiy shaxarlari markazlarini me'moriy-landshaft tashkil etishni takomillashtirishga qaratilayotgan e'tibor natijasida sohada bo'layotgan o'zgarishlarni e'tirof etish lozim. Shuningdek, bu kabi o'zgarishlarni ilmiy jihatdan tahlil etish sohaning keyingi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash hamda, yangiliklar yaratish uchun xizmat qiladi.



Asosiy qism. O'zbekistonning janubiy shaxarlari markazlarida kelgusidagi zamonaviy turar-joy binolarini me'moriy-landshaftga chambarchas bog'langan holda, innovatsion loyihalar asosida qurish rejalashtirilmoqda. Janubiy shaxarlarda zamonaviy turar-joy muhitini shakllantirishda, turar-joy majmualarida mazmunli hayot kechirish uchun energiya tejamkor uylar va zamonaviy landshaft loyihalari ishlab chiqilmoqda. Loyihalash kompaniyalari energiya tejamkor zamonaviy uy-joylar loyihalashda innovatsion yondashuvlarni samarali tatbiq etishmoqda. Aholi yashash joylarining o'sishi, rivojlanishi bilan birga ular tuzilishini shakllantirish tamoyillari ham rivojlanadi. Shaharlarni loyihalashda tabiiy sharoitlar, uy-joy fondi, transport va muhandislik infratuzilmasi holati, shaharning ekologik holati hisobga olinib, buning natijasida rejalashtirishni tashkil etishda quyidagi asosiy tamoyillar belgilandi:

- ☐ mavjud binolarni maksimal darajada saqlash;
- ☐ funktsional rayonlashtirishni optimallashtirish;
- ☐ oldingi rejalashtirish ishlari tahlili va so'nggi o'n yillikda shaharni rivojlantirishni hisobga olgan holda shaharni rivojlantirishning maqbul yo'nalishini tanlash;
- ☐ shaharning barcha qismlari o'rtasida qulay transport va piyodalar qatnovini ta'minlash;
- ☐ aholiga me'yoriy madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish;
- ☐ shaharni ko'kalamzorlashtirishning yagona tizimini yaratish;
- ☐ tashqi va ichki munosabatlarning oqilona qarori va o'zaro ta'siri;

- □ umumiy ekologik vaziyatni yaxshilash;
- □ shaharning rejalashtirish tuzilmasini taxminiy muddatdan tashqari dinamik rivojlantirish uchun shart-sharoitlarini ta'minlash;

Zamonaviy qurilish sohasining ustuvor jihatlaridan biri energiya tejamkor, zilzilabardosh mustahkam uylarni bunyod etishdir. Energiya tejamkor uylarni qurish, kelajakda aholining issiqlik va elektr energiyasini tejash hamda iste'mol xarajatlarini kamaytirishni ta'minlaydi. Energiya tejamkor uylar issiq suv va uy isitish xarajatlarini pasaytiradi, shu orqali ekologik muammolar kelib chiqish ehtimolini kamaytiradi va ekologiya sifat darajasini oshishiga xizmat qiladi.

Keng ko'lamli turar joy majmuasi qurilish jarayonida energiya samaradorligini ta'minlash bo'yicha kompleks yondashuv ishlab chiqilgan. Bilamizki O'zbekistonning janubiy shaxarlari keskin kontinental iqlim sharoitiga ega hudud hisonlanib, qahraton qish ham yozning jazirama issig'i ham ushbu hududda bo'ladi. Shu sababdan, qurilish vaqtida yuqori darajadagi shovqin va issiqlik izolyasiyasi xususiyatlariga ega bo'lgan bazalt tolasidan foydalanish orqali, ishonchli izolyasiya qatlami sabab, binolarida optimal harorat rejimiga erishiladi. Bu jarayon qishda ichki issiqlikni saqlab turishga xizmat qiladi, yozda esa yuqori haroratdan himoya qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda zamonaviy turar-joy muhitini shakllantirish va landshaft arxitekturasini takomillashtirishda ko'pchilik qurilish kompaniyalari panorama oynalar, zamonaviy arxitekturaning urfga aylanayotgan elementlaridan foydalanmoqda. Ular nafaqat yuqori estetik parametrlarga, balki energiya samaradorligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Energiya tejamkor maxsus ikki qavatli oynalardan foydalanish, energiya yo'qotilishi darajasini 10% gacha kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari ikki qavatli oynalar xonaga ko'proq quyosh nuri tushish imkoniyatini beradi, shu bilan birga issiq harorat uzoq vaqt xonani tark etmasligini ta'minlab beradi.



Zamonaviy turar-joy muhitida me'moriy-landshaftni takomillashtirish orqali o'zgacha muhit yaratiladi, bunda zamonaviy landshaft elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Landshaftni takomillashtirish orqali hudud o'zgacha chiroyga ega bo'ladi, shuningdek ekologik muhit yaxshilanishiga ham o'z hissasini qo'shadi. Turar-joy hududini obodonlashtirish

va ko'kalamzorlashtirishda bolalar maydonchalari, park maydonchlari, dam olish zonolari yaratish va landschaft arxitekturasiga kata e'tibor qaratish lozim.

Zamonaviy turar-joy majmualarida siz chang va loy ko'chalarni ko'rmaysiz, ko'cha shovqinini, avtomobil signallarini eshitmaysiz, hatto yomg'ir tovushlari ham mavjud bo'lmaydi. Chunki zamonaviy turar-joy muhitida aholining tinch hayot kechirishi uchun barcha shart-sharoitlar mujassamlashtirilgan bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonning janubiy shaxarlari markazlarini me'moriy-landshaft tashkil etishni takomillashtirish, uy-joylardagi energiyani tejamkorlikni, yuqori ekologik va ekspluatatsion xususiyatlarga ega ishonchli va uzoq muddatli tizimli yondashuvni va turar-joy majmualarida barcha shart-sharoitlarni yaratishni tatbiq etadi. Bu kabi innovatsion landschaft va turar-joy majmualari majmualari va undagi har bir xonadon yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: —O'zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.
2. Uralov A.S., Raximov A, Saidova B. A. Arxitekturaviy kompozitsiya va loyihalash asoslari. - Samarqand, 2005.
3. Qayimov A.Q., Turok Dj. —Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish. Toshkent -2012
4. Isamuxammedova D., Adilova L. «Landschaft arxitekturasini». «Fan va texnologiya» nashriyoti. Toshkent - 2010
5. Uralov A.S. Me'moriy shakllarni uyg'unlashtirish va bezash. - Samarqand, 2003.
6. Adilova L.A. Landschaft arxitekturasini. O'quv qo'llanma.-T., 2000.

ZAMONAVIY SHAHARSOZLIKDA OCHIQ JAMOAT AVTONOMIYASINI SHAKLLANTIRISHI.

v.v.b. dotsent SEREYeva GULJAZIRA ADILBOYEVNA., assistent ORIPOVA SARVINOZ ABDUQAXXAROVNA

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy shaharsozlikda ochiq jamoat maydonlarini shakllantirish yo'llari va bosqichlar to'g'risida so'z yuritilgan. Bundan tashqari ochiq jamoat muhitining hayotimizda qay darajada roll mavjud ekanligini ham ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlari: zamonaviy, avtonomiya, jamoat, rejalashtirish, psixologik, aholi, shaharsozlik, maydon.

Ma'lumki, zamonaviy shaharsozlik aholining barqaror rivojlanishi, sifatli hayoti va farovonligini ta'minlash maqsadida shahar va shahar hududlarini rivojlantirish va boshqarish jarayoni. U shahar muhitini tahlil qilish, jamiyatning ehtiyojlari va ustuvorliklarini aniqlash, er va infratuzilmadan foydalanishni rejalashtirish, uy-joy va ijtimoiy ta'minotni tashkil etish, transport tarmog'ini rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va madaniy merosni saqlash kabi keng ko'lamlı tadbirlarni o'z ichiga oladi. Zamonaviy shaharsozlik samarali, qulay, ekologik barqaror va ijtimoiy jihatdan adolatli shaharlarni yaratishga intiladi. U iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat, ekologik barqarorlik, madaniy xilma-xillik va hududning o'ziga xosligi kabi turli jihatlarni hisobga oladi. Shaharni rejalashtirishning zamonaviy yondashuvlariga smart city shahar aholisi hayotini yaxshilash uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadigan "aqlli shahar" (smart city) cities va odamlarning manfaatlari va ehtiyojlarini o'z rivojlanishining markaziga qo'yadigan "odamlar uchun shaharlar" (odamlar uchun shaharlar) tushunchalari kiradi. Zamonaviy shaharsozlikning muhim jihatlari aholining qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishi, turli manfaatdor tomonlarning fikrlarini hisobga olish, innovatsion echimlar va texnologiyalardan foydalanish, resurslardan barqaror foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishdir. Umuman olganda, zamonaviy shaharsozlik o'z aholisi yashashi va rivojlanishi uchun qulay, qulay va barqaror shaharlarni yaratishga intiladi.

Zamonaviy shaharsozlikda ochiq jamoat avtonomiyasini shakllantirish bir necha bosqichlardan o'tadi.